Olima ayollarimiz izlanishlari doim e’tirofda

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston xotin-qizlar “Olima” uyushmasi tomonidan “Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni”ga bag‘ishlangan iqtidorli olima ayollarning qishloq xo‘jaligi sohasida erishgan yutuqlarini e’tirof etish maqsadida “Oltin kuz -2022” ko‘rik tanlovi o‘tkazildi.





Ko‘rik tanlovda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti “Entomofaglar ekologiyasi va biousullarning nazariy asoslari” laboratoriyasi mudiri Axmedova Zuxra Yuldashevna tomonidan yangi ixtiro qilingan “Ko‘sak qurtiga qarshi kurashishda “HAVIR” biologik preparati” nomli ishlanmasi g‘olib deb e’tirof etildi hamda “Oltin kuz medali” va diplomi bilan taqdirlandi. Fanlar akademiyasi olima ayollari mehnati

doimo e’tirof etib kelinmoqda. Ayolning jamiyat, oila va ilm -fanda mehnat qilib natijalarga erishishi jasorat aslida. Zuhra Axmedovaga ham yana bir yutuq muborak bo‘lsin! Ilm yo‘lidagi izlanishlarida tolmay mehnat qilishlariga tilakdoshmiz!



